



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR'S WORK "BABURNAMA" IN WORLD TRANSLATION

Student of Andijan state foreign languages institute

Karimova Makhliyokhon Ibragimjon qizi

karimova_7798@mail.ru

Abstract: This article describes how "Boburnoma" has received the attention of almost all translators and how translators have interpreted this topic in different ways.

Key words: translators, definition, described

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARI DUNYO TARJIMASHUNOSLIKDAGI O'RNI

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Karimova Maxliyoxon Ibragimjon qizi

karimova_7798@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirga qadar "Boburnoma"ning deyarli barcha tarjimonlar e'tiborini qozonganligi va tarjimonlar bu mavzu turlicha ta'rif berishganligi haqida tasvirlanadi.

Kalit so'zlar: tarjimonlar, ta'rif, tasvirlanadi

Tarixda shunday shaxslar bo'ladiki, ular millat taqdiri va taraqqiyotida mislsiz katta mavqe qozonadi. Zamonlar o'tadi, nasllar, avlodlar almashadi, qarashlar, urf-odatlar o'zgaradi, Taraqqiyot yoki tanazzul shu qadar evriladiki, tafakkur va tilda bir qadar mushtaraklik saqlansada, badiiy lisoniy-uslubiy ifoda vositalarida jiddiy siljishlar



paydo bo'ladi.

Amerikalik tarjimon Viler Tekston yaratgan «Boburnoma» ning yangi inglizcha nusxasi matniga baho berganda ham ana shu jihatlarni qat'iy ravishda hisobga olish lozim. Ushbu kitobning favqulotda qimmatini shundaki, u mazkur noyob xotira romani dunyodagi barcha ingliz zaban xalqlarning e'tiboriga musharraf etdi, ularni Movaraunnahr, Hindiston, Afg'oniston, Xurosonda kechmish o'rta asr tarixining haqqoniy, jonli manzaralari bilan bahramand qildi.

Evropa va olis Amerika ilmiy-madaniy muhitda «Boburnoma» ning shuxrat topishi osonlikcha kechmagan.

Tarjima mutaxassislarining yakdil e'tiroficha, mashhur hind eposi «Ramayana», badiiy so'z qudratining yuqori ekanligidan tashqari, yana bir qator o'ziga xos jihatlari tufayli ham boshqa tillarga o'girish uchun benihoya mushkul asar hisoblanadi. Unda tasvirlangan voqealar, tushunchalar, irim - sirimlar, urf - odat va taomillar, udum va marosimlarning aksari faqat hindlarning o'zigagina tushunarli bo'lib, bu asosan ularning diniy va dunyoviy qarashlaridagi o'ziga xosliklardan kelib chiqadi.

«Boburnoma» ham, o'girish nuqtai nazaridan, «Ramayana» tipiga mansub asar. Unda muallif, garchi asarni ilk bora o'z asl matnida nashr qildirgan rus olim, taniqli turkshunos N.M. Il Minskiy o'z so'z boshida qayd qilib o'tganiday, «ijodida tilning tumtaroqli bo'lishiga sira ham intilmagan va shubxasiz, Navoiy asarlari tilidan iborat olgani xolda, o'z shahri Andijonni sof holda saqlay olgan» bo'lsada, asarda Movarounnahr hozirgi Afg'oniston va Pokiston, Hindiston hududiga o'nlab xalqlar hayotiga oid xususiyatlar, bu yurtlarning geografiyasi, aholisining tili, tarixi, hayvonot olamiga doir behisob ma'lumotlarni keltirib o'tadiki, bayonda qo'llangan istiloh va atamalar ma'nosining tagiga yetish uchun ham juda ko'p izohlar, sharxlar lozim, buning ustiga «Boburnoma» matnidagi



juda ko'p kalimalarning ma'nosi hozirga qadar mavjud lug'atlarda qamrab olinmagan.

Endi turk tarixi va nasrining bu benazir namunasi, qomusiy manba bo'lmish Boburnomaning G'arb mamlakatlarida nashr etilish sanalariga e'tibor qilay.

1. J.Leyden, V. Erskin. Edinburg, 1826 (ingliz tilida).
2. A. Kayzer. Laypsig, 1828 (olmon tilida).
3. A. Pave de Kurteyl. Parij, 1871 (fransuz tilida).
4. A. Beverij. London, 1905 (ingliz tilida).
5. J. Leyden, V. Erskin (L. U. King) Oksford, 1921 (ingliz tilida)
6. A. Beverij. London, 1922 (ingliz tilida).
7. J. L. B. Grammon. Parij, 1987 (fransuz tilida).

Asarning g'arb tillari: ingliz, olmon, fransuzchaga to'la tarjima qilinish tarixi bir yarim asrlik davrni qamrashi ko'rinib turibdi, Qiyos qilaylik: 1926 va 1848-yillar. Lisoniy ifodaga aylantirsak, Mavlono Boburnoma Evropada keng tarqalib, jahon kezib yuribdilaru, biz, uning qonuniy vorislari, naqt 162 yildan keyin asarning atiga birinchi qismini o'z vatanimizda chop etishga erishibmiz...

Aytib o'tilganidek, g'arbda paydo bo'lgan barcha nashrlarni ham birday baholab bo'lmaydi. Ular orasida maqsad va nashrlar sifati har xil. Ammo bir narsa aniq. Nima bo'lgandayam, aynan g'arb boburshunosligi harakati tufayli bizning diyorumizda, hatto eng tarixiy turg'unlik yillarida ham bu olam-shumul qimmatli manbaga bir qadar e'tibor berildi.

G'arb sharqshunosligida Boburnoma talqini va tarjimalarining sifati bir xil emas, dedik. Ammo bu, o'z-o'zicha olganda, tamomila tabiiy hol. Tarjimaning takomillashuvi, sifatining oshib borishi tadrijiy sajiyaga ega, G'arb boburshunosligi, agar nashrlarning yoshini e'tiborga olinsa, kamida uch avlod olimlar va tarjimonlar tomonidan barpo etilgan, qachonki, o'zimizda bu bor-yo'g'i bir pusht avlodning mehnati samarasi bo'lib qoldi. G'arb boburshunosligida bu azamat tarixiy, ma'rifiy tarjimayi ish muayyan aniq



uzviylik, izchillik, davomiylik, vorisiylik asosida takomillashib bordi. Hindistonda bunchalik uzoq davr hukm surgan temuriylar saltanatining ichki sir - asrorlarini o'sha saltanat asoschisining o'z qo'li va zehni bilan yozgan asarlari (komusiy xotiranomasi)dan qidirish lozimligini ular yaxshi tushunardilar.

Shu zayl, bir necha sharqshunos olimlar, boburiylar tarixini o'rganish uchun, Hindistonga keladilar. Ulardan biri Jon Leyden edi (1775-1811). «Boburnoma» ni ilk bor farang tiliga tarjima qilgan Pave de Kurteyl XVIII -XIX asrlarda Jon Leydenning ingliz sharqshunosligida tutgan o'rnini ko'rsatib bergan, Uning yozishicha, Jon Leyden sharqshunos mutaxasis bo'libgina qolmay, o'z davrining mashhur fizigi va shoiri bo'lib tanilgan shaxs edi.

Jon Leydenning rafiqasi Izabella Skott (Izabella Scott) Angliya davlatining taniqli a'yonlaridan biri, mashhur yozuvchi Val Ter Skottning singlisi bo'lib chiqdi. Jon Leyden, A. Beverij xonim «Boburnoma»dan qilgan nasriy va nazmiy tarjima jarayonida quyidagicha ta'riflaydi:

«Boburning ikkinchi satridagi ruxiy xissiyotga biron qo'shimcha qilishga ojizlik qilaman. Bir biriga zid fikrlar nimani anglatishini tushunib yetish mushkul. Bobur o'zining ichki ruxiy aks sadolarini she'rlarida namoyon qiladi. Butun voqealarni nazmda tasvirlab, shunday shoirona uslubda davom etadi». «Bobur voqealar bitilgan sahifalarning satrlarini o'zining oliyjanob qalbidan uzr so'ragan holda, pushaymonlik qayfiyatiga cho'mib, o'z qalb yaralarini barmoqlari ila timdalab, tanbex pichog'i bilan saralab qofiyaga olgan. Men bunday botiniy iloxiy misralarni nazarda tutgan holda, uni tangriga bo'lgan tavba iltijosi va A'lo Xazratlarining aytgan betakror so'zlari har qanday azoblarning so'zlaridan ham qudratliroq, deb tushunaman.

A. Beverij xonim davom etib yozadi: Men Zahiriddining cheksiz zavq-shavk va dabdaba bilan tayyorlagan farmonini va Boburning turkiyona kamtarlik bilan yaratgan ishini biron-bir hind tilidagi risolalarda uchratganim va o'qiganim yo'q. Bu shunchaki tarjima bo'lmay, Boburning notiqligini so'zlari zamirida



yashiringan teran ma`nolarini, ijodiy saloxiyatini ko`rsatib turibdi. Tasvirlar go`zal bog`larning maftunkorligida namoyon bo`lganday lov-lov tovlanadi. «Boburnoma» Hindistonning tabiati va boyliklarini tasvirlashi bilan ham mukammallik kasb etganki, buni tadqiq qilayotgan kishi unga yangi biror dalil, birorta aniqroq qo`shimcha kirita olmaydi.»

«Boburnoma» chinakam hayratomuz asar. Bunday ishlarni o`zini busbutun ilmga, ijodga bag`ishlagan kishilargina yarata oladi. Yozganda ham, faqat «voqeanoma» emas, har biri dard bilan sug`orilgan benixoya sermazmun va go`zal she`rlar, diniy va dunyoviy risolalar, ajoyib-g`aroyib tarjimalar ham yaratgan ulkan bir mutaffakir yozgan.

Biz «Boburnoma» ning uch inglizcha tarjimasini tarixida to`rt nomni tilga oldik: Jon Leyden, Vilyam Erskin, Anetta Beverij, Viler Tekston. Uch davrga mansub bo`lgan bu tarjimalarga xos umumiy xislat: Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga muxabbat, xislat: mardligi, yaxshi ishlardan xayratlanish, binobarin ana shu insoniy tuyg`ularni ajib zavqi ila millionlab ingliz zabon kitobxonlarga iloji boricha to`kis va mukammal xolda yetkazishdan iborat.

Hozirga qadar «Boburnoma»ning deyarli barcha tarjimonlari e`tiborini tortgan yana bir atama Hindistonning hayvonot olami haqida keltirilgan qismdagi suv mavjudoti kakka balig`i oid mulohazalarga e`tiboringizni tortamiz. Tarjimonlar bu jonzodga turlicha ta`rif berishgan. Asl nusxada: kakka baliqdir. Ikki quloginining to`g`risi ikki sungak chiqubtur, uzunligi uch ellik bo`lgay. Yotgonda bu ikki sungakni tebratadur. G`arib tavr un keladu. Golibo ul uni jixatidan kakka debturlar.



Leyden Erskinda: The Kakeh is another fish. On a line with its two ears issue two bones. (bony protuberances) three fingers breadth in length. When caught it shakes these two bones, which return a singular sound, whence they have given this fish its name of kakeh.

Beverij xonim kakka baligi ovozini qo'yidagicha «eshitadi»: Again there is the kalah (or galah) fish (baligh). Two bones each with its ears; these it shakes when taken producing noise, whence, seemingly, people have called it kalah.

Beverijning sahifa ostida izoxlashicha «Xaydarobod» qo'lyozmalari va Hindiston mahkamasi jurnallarida qayt qilinishicha, kakka (galah) baligi katta qisqichbaqa baliq demakdir deb aytilgan.

Xatto tabiatshunos olim, tarixchi va geograf sifatida sinchkov tadqiqotchi Boburga ham shoir va nosir Boburning jozibali qalami yordamga kelgan - turli jonivorlar, o'simliklar, daryolar, tog'lar tasvirida, har xil ijtimoiy voqealar qiyosida muallifning ularga munosabati ravshan ko'rinib turibdi, natijada har bir voqea tasvirida Boburning fe'l -atvori ochila boradi.

Shu o'rinda bir misol, Ibrohim Ludiyning mag'lub bo'lishi sababini izohlar ekan, Bobur shunday satrlarni bitadi: g'animning hozir cherikini bir lak (yuz ming) chenarlar edi. O'zining va umarosining ming - ikki mingga yovug' fili bor derlar edi. Ikki otasidan qolgon xazina xud naqd iligida edi, Hindustonda rasme bordurkim, mundog' ishtutganlarda yarmoq berib, ziyod birla navkar tutarlar, Bu elni bidhindi derlar. Agar mundog' xayol qilsa edi, bir lak - ikki lak ham navkar tuta olur edi. Tengri taolo rost kelturdi, ne yigitni rozi qila oldi, ne xazinasini o'lasha oldi. O'zi yarmoq yig'ishtirmoqqa bexad tolib betajriba yigit edi.

Ana shu kichik parchaning o'zida Boburning Ludy singari odamlarga bir shaxs sifatidagi munosabati ham, harbiy iqtidori, qo'li ochiqligi ham yaqqol namoyon bo'ladi, «Boburnoma» matnida muallifning iztirob bilan bitgan g'azal va ruboiylari, odamlar aro munosabatlarning murakkabligidan chiqargan falsafiy xulosalari, maqol va matallar, ajoyib o'xshatish hamda qiyoslashlar



asar jozibasini ortiribgina qolmay, undan ham avval Bobur siymosini yanada jozibalashtiradi. «Boburnoma»ning xuddi ana shu jihatlari bilan ham mutarjimlar uchun g'oyat jozibali asar hisoblanadi. Boburga maftun bo'lgan, o'zining butun ijodiy umrini Bobur hayoti va «Boburnoma»ni tadqiq etishga bag'ishlagan fidoyi adiba Anetta Susanna Beverij xonim 23 yillik og'ir, sharaflil mehnati samarasini ota - onasiga emas, «Boburnoma» tarjimasiga undagan umr yo'ldoshi Xenri Beverijga ham emas, balki Boburning o'ziga, uning sharafiga bitadi. «Boburnoma» tarjimasining zarvaragiga «This work is dedicate to Baburis Gate» (Bu asar Boburning shon - shavqatiga bahshida etildi) degan xayajonli so'zlar bitib qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahongashta «Boburnoma», G'aybulloh as-Salom, Ne`matulloh Otajonov, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1996 yil
2. «Boburnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur, 1 qism, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev, O'zbekiston davlat nashriyoti, Toshkent, 1948 yil
3. «Yulduzli tunlar», Pirmqul Qodirov, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1981 yil
4. «Boburnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur, «Sharq» nashriyoti - matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2002 yil
5. «Boburnoma» - Viler Tekston tarjimasida, Muxdmatismoyil Sobirov, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferatidan, Toshkent, 2000 yil